

JADID MUTAFAKKIRLARINING TA’LIM-TARBIYAGA E’TIBORI

Ilxom I. To’xtanazarov

FarDU harbiy ta’lim fakulteti uslubiy tayyorgarlik sikli katta o’qituvchisi,
dotsent, zahiradagi mayor

Annotatsiya: Mazkur maqolada jadid mutafakkirlarining, xususan, Abdulla Avloniy va Abdurauf Fitratlarning ta’lim-tarbiyaga doir ilg‘or g‘oyalari tahlil etilgan. Jadidlar mакtab va ta’lim tizimini faqat bilim o’chog‘i emas, balki barkamol insonni shakllantiruvchi tarbiya maskani sifatida ko‘rganlar. Maqolada Avloniy va Fitrat asarlaridan misollar keltirilib, ularning yosh avlodni vatanparvar, axloqli, bilimli va komil inson etib tarbiyalash haqidagi qarashlari yoritib berilgan. Jadidlar ta’lim-tarbiyani millat va jamiyat taraqqiyotining negizi sifatida ko‘rganlar va bugungi kunda ham ularning qarashlari o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Ayniqsa, Avloniy tomonidan ilgari surilgan tarbiya bo‘yicha 4 asosiy yo‘nalish — zamon, badan, fikr va axloq tarbiyasi — bugungi yoshlar uchun ham dolzarb masala bo‘lib qolmoqda. Fitrat esa mакtab va ta’limni jamiyat taraqqiyotining asosiy kuchi sifatida baholagan. Ushbu maqola zamonaviy O‘zbekistonda yoshlarni komil inson etib tarbiyalashda jadid g‘oyalardan samarali foydalanish zaruriyatini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: Jadidlar, ta’lim-tarbiya, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, tarbiya g‘oyalari, ma’rifat, axloqiy tarbiya, milliy qadriyatlar, ma’naviy-ma’rifiy tarbiya, zamonaviy tarbiya, yoshlar tarbiyasi, pedagogik meros, mакtab, oila, jamiyat, ijtimoiy muhit, Vatanga sadoqat, axloqiy fazilatlar, jadidchilik, o‘zbek ma’rifatchilar.

KIRISH

Jadidlar o‘z milliy dasturlarida tarbiya masalalariga keng o’rin beradi. O‘zlar ochgan yangi usul jadid maktablarida ham o’quvchilar tarbiyasiga alohida e’tibor qaratishgan. Jadidlar maktabni tarbiya maskani deb hisoblashgan. Tarbiya inson dunyoga kelgan kunidan to umrining oxirigacha davom etadigan uzlucksiz jarayondir. Jadidlar tom ma’noda ma’naviy-ma’rifiy tarbiya g‘oyasining targ’ibotchilaridir. Ularning asarlarida ilgari surilgan ta’lim-tarbiyaga oid fikrlar milliy ma’naviyatning rivojlanishida qimmatli manbalar sanaladi. Jadidlar asarlari bugungi kun yoshlari uchun ibrat mакtabi deyish mumkin.

Taniqli jadid marifatparvari, birinchi o‘zbek pedagogi Abdulla Avloniyning

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 03. March 2025

tarbiyaga bergen ta’rifi jadidchilik faoliyatida tarbiya masalalari nechog’liq yuksak o’rin tutganidan dalolatberadi “Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir” [1]. Tarbiya masalasi bugungi kunda ham dolzARB masala hisoblanadi. Jadidchilar orasida A.Avloniy o’z faoliyati davomida tarbiya masasiga juda keng o’rin ajratadi. Avloniy o’zi yaratgan asarlarda ta’lim bilan bir qatorda tarbiyaga ham alohida e’tibor qaratish lozimligini ta’kidlaydi. Uning “Turkiy guliston yoxud Axloq” asari aynan tarbiya masalalariga bag’ishlangan.

A.Avloniy tarbiya doirasini keng ma’noda tushunadi, uni faqat axloq bilan chegaralab qo’ymaydi, balki tarbiya vatanga sadoqat, el-yurtga hurmat kabi insoniy fazilatni ham o’zida mujassamlashtiradi, degan g’oyani ilgari suradi. Avloniy bola tarbiyasini nisbiy ravishda 4 bo’limga ajratadi:

1. Tarbiyaning zamoni;
2. Badan tarbiyasi;
3. Fikr tarbiyasi;
4. Axloq tarbiyasi va uning ahamiyati haqida so’z yuritadi.

“Tarbiyaning zamoni” bo’limida tarbiyani yoshlikdan berish zarurligini, bu ishga hammani, ota-onas, muallim, hukumat va boshqalarning kirishishi kerakligini ta’kidlaydi. Avloniy bolalarda axloqiy xislatlarning tarkib topishida ijtimoiy muhit, oilaviy sharoit va atofidagi kishilar muhim omil bo’lib xizmat qilishini aytib o’tadi. Shuningdek, Avloniy tarbiya masalasida so’z yuritib, “Agar bir kishi yoshligida nafsi buzilib, tarbiyasiz, axloqsiz bo’lib o’sdimi, bunday kishilardan yaxshilik kutmoq, erda turib yulduzlarga qo’l uzatmak kabitdir” [1. 214], – deydi.

“Turkiy guliston yoxud axloq” asari axloqiy, ta’limiy va tarbiyaviy asardir. Avloniyning fikricha, “Tarbiya xususiy ish emas, milliy, ijtimoiy ishdir. Har bir xalqning taraqqiy qilishi, davlatlarning qudratli bo’lishi avlodlar tarbiyasiga ko’p jihatdan bog’liq” [1. 146].

Jadidlarning yana bir yorqin vakili Abdurauf Fitrat xalqni ma’rifatli qilishda ta’lim-tarbiya masalasi juda muhim deb hisoblagan. Fitrat o’z asarlarida Buxorodagi barcha maktablarni keltirib o’tadi, ammo ta’lim-tarbiya berish axloqiy sifatlarni shakllantirishda hech qanday ahamiyati qolmaganini aytib o’tgan . Fitrat maktabni tarbiya o’chog’i deb hisoblagan, maktabni jamiyat hayotini rivojini ta’minlovchi asosiy manbalardan biri ekanini ta’kidlagan [2].

Maktab bolalarga tarbiya berib, jamiyatdagi buzuqliklar, o’g’irlilik, razolatni yo’qotishi lozim deb biladi. Fitrat darsliklarida ko’plab hikoyalar keltiradi, bu

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 03. March 2025

hikoyalarda axloqiy tarbiya berishga va turli axloqiy xislatlarni singdirishga harakat qiladi. Fitrat inson shaxsini tarbiyalash uchun kurashgan mohir pedagogdir. U millatparvarlik va vatanparvarlik haqidagi qadriyatlarga tayanib, shunday ta’limot yaratdiki, bu ta’limot bugungi kunda vatanparvarlik mafkurasini yaratish va yoshlarni vatanni, millatni sevishga o’rgatishda muhim qo’llanma bo’la oladi. Fitrat vatan, vatanparvarlik va insonparvarlikni eng yuksak axloqiy xislat deb bilib, kishilarni uni asrashga, unga sidqidildan xizmat qilishga chaqiradi. Fitrat ijodiyotidagi eng muhim masalalardanbiri uning islom dini g’oyalarini har taraflama chuqur o’rganib, tahlil etib, ulardan komil insonni imon-e’tiqod va insofli qilib tarbiyalashda foydalanishni targ’ib qilganligidir. Fitrat barkamol inson tarbiyasida axloqiy tarbiyaning o’rni juda katta deb biladi. Uning fikricha, axloqiy tarbiyaning vazifasi insonni axloqiy barkamol, barchaga foydali inson qilib tarbiyalashdan iborat. U hikmat, iffat, shijoat va adolatni asosiy axloqiy sifatlar deb hisoblaydi.

Fitrat oila tarbiyasi va jamiyatda ayollarning o’rni, masalalariga ham alohida to’xtaladi. Bola tarbiyasida onaning o’rni juda kattaligini ko’rsatadi. Shu bilan birga tarbiyada oila, maktab va davlat hamkorligining zarurligini asoslaydi. Fitratning “Rahbari najot” asari to’la ravishda ta’lim-tarbiya masalasiga bag’ishlangan. Ushbu asarning “Bola tarbiyasi masalalari” bobida “Oila vazifalaridan biri avlodni tarbiyalashdan iboratdur” [2. 125], – deya ta’kidlaydi. Bundan tashqari, u bola tarbiyasi faqat oiladangina olib borilmasdan bu ish bilan keng jamoatchilik, davlat ham shug’ullanishi kerakligi, chunki davlatning kelajagi ana shunday yoshlar qo’llida bo’lishini aytib o’tadi.

Fitrat bolalar tarbiyasini o’zi yashayotgan atrof-muhit va atrofidagi bolalardan olishlarini ta’kidlaydi. U ijtimoiy muhitning bola tarbiyasiga katta ta’sir o’tkazishini isbotlab beradi. Fitrat o’zining asarida: “Dunyoda izzat va saodat tolibi bo’lmagan birorta qavm yo’q. Har bir millatning saodati va izzati, albatta, shu xalqning ichki intizomi va totuvligiga bog’liq. Tinchlik va totuvlik esa shu millat oilalarining intizomiga tayanadi” [2. 58], – deya yozadi

Fitrat inson kamolotga etishishi uchun doimo intilishi, harakat qilishi lozimligi, doim oldiga maqsadlar qo’yishi va unga erishish uchun kurashishi kerakligini uqtiradi.

Fitrat axloqi buzuq kishilarni maktabda muallimlik vazifasidagina emas, balki maktab qorovulligiga ham yaqinlashtirmslikni juda to’g’ri harakat deb biladi. U o’z asarlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, ozodlik, mehnatsevarlik, maqsad sari intilish, insonlarga mehr-shafqatli bo’lish, o’z manfaatidan xalq manfaatini ustun qo’yish

g'oyalarini ulug'laydi.

Abdurauf Fitrat o'zining butun hayoti davomida milliy mustaqillikka erishish va mustamlakachilikka qarshi kurash, Yevropa davlatlari ilmi, texnikasi madaniyatidan o'rghanish muammolarini tinimsiz targ'ib qilgan siymolardan biri sifatida barchaga, eng avvalo yoshlarga katta ibratdir.

Mahmudxoja Behbudiy Turkiston jadidlari otasi, jadidchilikning yana bir yorqin vakilidir. Jadidshunos Begali Qosimovning ta'kidlashicha: “Mahmudxo'ja Behbudiy XX asr bo'sag'asidagi Turkiston orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o'z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarda faol qatnashgan yirik namoyondasi, yangi zamon o'zbek madaniyatining asoschisi edi. Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi. Mustaqil jumhuriyat g'oyasining yalovbardori, yangi maktab g'oyasining nashriyotchisi va amalyotchisi, o'zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi” [3]. Behbudiy yangicha ta'lim tarbiyani afzalliklarini isbotlashda ko'proq o'zi erishgan yutuqlarga, o'zi amaliyotga tatbiq qilgan yangi tartiblarga tayanadi. Behbudiy axloq va tarbiyaning asosi – maktab, barcha ilmlarning boshi – maktab, saodatning, fozil insonning ma'naviy chashmasi – maktab degan aqidaga qat'iy amal qilgan.

Mahmudxo'ja Behbudiy uchun milliy g'oya – millatni taraqqiyotga olib chiqish g'oyasi edi. Bugun ma'rifarparvar jadidlarning bebaho asarlari, ilmiy, nazmiy va nasriy meroslari, ijtimoiy-falsafiy va axloqiy g'oyalari o'zbek xalqining ma'naviy ma'rifatini, milliy tarbiya, milliy qadriyatlar va milliy ongni yuksaltirish yo'lida xizmat qilib, yoshlar qalbida vatanga muhabbat vasadoqat tuyg'ularini tarbiyalab kelmoqda. Yangi O'zbekistonda ma'rifatpar jadidlarning nomlari tiklanib, tavvallud kunlari tantanali nishonlanmoqda, ularning pok nomi oqlanmoqda, asarlari qayta-qaytachop etilmoqda. Ularning dunyoqarashlarida bayon etilgan falsafiy-axloqiy fikrlari xalqning madaniy-ma'naviy qadriyatlar sifatida hanuzgacha saqlanib kelmoqda.

Taraqqiyparvar jadidlar o'z davrining ilg'or qarashlarini mujassamlashtirib, jamiyat hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, ta'lim-tarbiyaga bog'liq bo'lgan fikrlarni ilgari surishdi. Ularning bu boradagi qarashlari hech qachon o'z qimmatini yo'qotmaydi. Ta'lim jarayonida taraqqiyparvar jadidlar faoliyatini samarali o'qitilishiga doir quyidagi fikr-mulohaza va takliflarni bildirish mumkin:

Birinchidan, jadidlar tomonidan avval ilgari surilgan g'oya va tajribalarni muntazam ravishda o'rganib borish hozirning ham dolzarb masalaridan biri ekgani;

Ikkinchidan, o'quvchi, talaba-yoshlarning taraqqiyparvar jadidlarfaoliyat yuritgan

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 02. Issue 03. March 2025

tarixiy davr, muhit va undagi shart-sharoitlar to‘g‘risida etarlicha tasavvur va xulosalarga ega bo‘lishlarining muhimligi;

Uchinchidan, dars mashg‘ulotlarini zamонавиy pedagogik texnologiyalar asosida, ko‘rgazmali vositalardan foydalanib o‘tilishiga erishish;

To‘rtinchidan, o‘quvchi, talaba-yoshlarni mavzuga doir mustaqil ishlarni bajarishga yo‘naltirish maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. A.Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, Toshkent yoshlar nashriyoti. 2019. – B. 214.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. – Toshkent. Ma’naviyat. 2009. – B. 162.
3. Qosimov B. Karvonboshi – Mahmudxo’ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. – Toshkent, Ma’naviyat. 2006. – B. 195.

Research Science and Innovation House